

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD 03/30.12.2021.P.26.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ALIMBAYEVA OZODAXON ISABEKOVNA

**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARIDA AXBOROT
KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Alimbayeva Ozodaxon Isabekovna

Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarida axborot kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari..... 3

Алимбаева Озодахон Исабековна

Педагогико-психологические особенности развития информационной компетентности у будущих учителей начальных классов..... 23

Alimbayeva Ozodaxon Isabekovna

Pedagogical and psychological features of the development of information competence among future primary school teachers..... 45

Eʻlon qilingan ishlar roʻyxati

Список опубликованных работ

List of published works 49

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD 03/30.12.2021.P.26.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ALIMBAYEVA OZODAXON ISABEKOVNA

**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARIDA AXBOROT
KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2024.2.PhD/P894 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.psi-ik.uz) va «Ziyonet» axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Karshiyeva Dilafuz Suyunovna
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Abdurasulov Rustam Abduraimovich
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Badriddinova Madina Baxramovna
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD03/30.12.2021.P.26.02 raqamli bir martalik Ilmiy kengashning 2024-yil «_____» kuni soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel: (+99871) 276-82-32; faks (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro‘yxatga olingan) (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel: (+99871) 276-82-32)

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «___» _____ kuni tarqatildi.

(2024 yil «___» _____ dagi ___ raqamli reyestr bayonnomasi).

F.A. Akramova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

N.B. Atabaeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Z.T. Nishanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, psixologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari axborot kompetentligini rivojlantirishning psixologik jihatlarini tadqiq etilib, kasbiy kompetentlikni shakllantirishning o‘ziga xos texnologiyalari ta‘lim jarayoniga tatbiq etilmoqda. Ijtimoiy tadqiqot natijalariga ko‘ra, «raqamlashtirilgan ta‘lim muhitida kiberijtimoiylashuvga xizmat qiluvchi kompetentlikni»¹ rivojlantirish, bitiruvchi talabalarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishi aniqlangan bo‘lib bu borada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining axborot kompetentligini rivojlantirish, ular kasbiy tayyorligini oshirish texnologiyalarini takomillashtirish usullarini tadqiq etish dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda.

Jahonda oliy ta‘lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining axborot kompetentligini rivojlantirishni takomillashtirishda o‘zaro ijodiy hamkorlikka erishish va ilmiy loyihalarni amalga oshirish va bo‘lajak pedagoglarning kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada kasbga tayyorlashni xalqaro malaka talablari asosida olib borish, ta‘lim sifatini xalqaro darajaga ko‘tarish, tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish darajasi diagnostikasini amalga oshirish, ijtimoiy kommunikativlikni faollashtirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlarga alohida e‘tibor berilmoqda.

Yangi O‘zbekistonda so‘nggi yillarda raqobatbardosh kadr sifatida tayyorlash tizimini isloh qilishga yo‘naltirilgan masalalarning huquqiy-me‘yoriy asoslari yaratildi: «Raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish va bunda quyidagi jihatlarni inobatga olish: axborot savodxonligi (qaror qabul qilish uchun zarur bo‘lgan ma‘lumotlarni topish qobiliyati); kompyuter savodxonligi (raqamli qurilmalar bilan ishlash qobiliyati); media savodxonligi (ommaviy axborot vositalarini tanqidiy o‘rganish imkoniyati); kommunikativ savodxonlik (zamonaviy raqamli aloqa vositalaridan foydalanish qobiliyati); texnologik innovatsiyalarga (yangi texnologiyalarga) ijobiy munosabatni shakllantirish»² masalasi ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bunday yondashuv esa barcha sohalar uchun zarur yetakchi kadrlar tayyorlash, xususan, raqamlashtirilgan ta‘lim sharoitida bo‘lajak pedagoglarning axborot kompetentligi rivojlantirishning psixologik imkoniyatlari kengaytiradi hamda mazkur ilmiy-tadqiqotni amalga oshirishga yetakchi asos bo‘la oladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son «2020-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonni taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida», 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847–son «O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida», 2020-yil 6-oktabrdagi PF–6079–son «Raqamli O‘zbekiston-2030» strategiyasini

¹http://journal.homocyperus.ru/informatsionnaya_kompetentost_sovremennix_obuchayuschih_sya_i_epoxa_kibersotsializatsii_gorizonti_vzaimodeystviy

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktabrdagi PF–6079–son “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni/<https://lex.uz/uz/docs/5030957?ONDATE2=14.07.2021&action=compare>

tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonlari va 2020-yil 6-noyabrda PQ-4884-son «Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qaror hamda ushbu faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda **mazkur** dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamiz pedagog va psixolog olimlaridan **O.E.Xayitov**, Sh.H.Abdullayeva, N.G.Abdimuratova, F.F.Ganjiyev, M.T.Mirsoliyeva, U.X.Mingboyev, D.D.Oribboyeva, Sh.Q.Primov, G.SH.Salomova, A.G'.Turg'unboyeva, va boshqalarning ilmiy izlanishlarida, bo'lajak pedagog talabalarda kompetentlikni rivojlantirishga ta'sir etuvchi pedagogik-psixologik usullar va psixologik omillar tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan V.I.Baydenko, T.A.Gartung, M.I.Yenikeyev, I.A.Zimnyaya, E.F.Zeyer, S.M.Klimov, A.I.Kapterev, A.N.Leontyev, M.K.Marinicheva, A.I.Prigojin, S.L.Rubinshteyn, V.N.Rindak, E.E.Simanyuk, V.D.Shadrikov, I.S.Yakimanskaya va boshqalar tomonidan talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish borasida ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Xorijiy olimlardan F.Gersberg, J.O'Konner, I.Makdermot, A.Maslou, D.MakKlelland va boshqalarning ilmiy izlanishlarida «kompetentlik», «axborot kompetentlik» tushunchasining mohiyati, uning psixologik jihatlarini, shaxsda axborot kompetentlikning **rivojlanishi masalalari ilmiy** tadqiq etilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining «Shaxs tarbiyasida milliy xususiyatlarni tadqiq etishning metodologik asoslarini takomillashtirish» mavzusidagi PZ-20170923121-raqamli amaliy loyihasi doirasida bajarilgan (2018-2020-y.y.).

Tadqiqotning maqsadi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ijtimoiy axborot kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini ochib berish orqali ularni shakllantirishga doir tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar axborot kompetentligining rivojlantirishga o'quv motivlari ta'sirini aniqlash;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining axborot kompetentligini rivojlanishiga tafakkur va kognitiv uslubining ta'sirini ochib berish;

talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirishni shaxs individual xususiyatlariga bog'liqligini tadqiq qilish;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida axborot kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan dastur va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obykti sifatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida axborot kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlash jarayoni olingan bo'lib, tadqiqotga Toshkent davlat pedagogika universitetinig boshlang'ich ta'lim yo'nalishidan 126 nafar, Jizzax davlat pedagogika universitetidan 132 nafar, Buxoro davlat pedagogika institutidan 116 nafar 1-2-3-4- kurs talabalari, tadqiqotga jami 374 nafar respondentlar jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ijtimoiy axborot kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida kuzatuv metodi, N.A.Stepanova, L.N.Sannikova, S.N.Yurevich, N.I.Levshinalarning «Ijtimoiy-axborot kompetentligini aniqlash», R.MakKraye va P.Kostning «Katta beshlik», A.A.Rean, V.A.Yakunin, N.S.Badmayevalarning «Talabalarning o'quv motivatsiyasini diagnostika qilish», A.A.Alekseyev, K.Gottshald shakllari metodikalari va L.A.Gromovalarning «Tafakkur uslublari» so'rovnomasidan foydalanildi. Olingan natijalarning ishonchlilik darajasi matematik-statistik metodlardan Kolmogorov-Smirnov, Uilkokson (W), Kruskal-Uollis (H) va Spirmen (r) mezonlaridan foydalanish orqali tasdiqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar axborot kompetentligini rivojlantirishga o'quv motivlarini ta'siri natijasida talabalarning diqqat fokusini ta'limiy ma'lumotlarga qaratishi, didaktik ma'lumotlar bilan ishlashdagi tasavvurlar olamini kengayishi kognitiv komponentning ta'sirida kuchliroq namoyon bo'lishi tufayli «professional» hamda «o'quv-kognitiv» motivlar ustuvor harakterga ega ekanligi dalillangan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining axborot kompetentligini rivojlanishi maydondan mustaqil kognitiv uslub egalarida axborotlarni idrok qilish, qayta ishlashda kognitiv komponent pragmatik fikrlashni, maydonga tobe uslub egalarida esa axborotga motivatsion-qadriyatli munosabat idealistik tafakkurni kuchaytirganligiga asoslanib, shaxs tafakkur va kognitiv uslubi bilan determinatsiyalashganligi isbotlangan;

talabalarning axborot kompetentligi ma'lumotlar bazasi bilan ishlashdagi texnologik jihatlar o'zini nazorat qilish, ta'limiy axborotlarga motivatsion-qadriyatli munosabat ekstroversiya-introversiya, emotsional barqarorlik, ekspressiv-amaliy fazilatlar bilan uyg'un holda o'quv jarayonida namoyon bo'lganligi tufayli uning shaxs individual xususiyatlariga bog'liq rivojlanishi aniqlangan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida axborot kompetentlikni rivojlantirish uchun talabalarda turli axborot manbalarini topish, ularni aniqligi va dolzarbligini tekshira olish, ulardan didaktik maqsadda foydalanish, birlamchi axborotni ikkilamchi ma'lumotdan ajratib olish, internet-resurslardan foydali axborot topish ko'nikmasini shakllanishi muhimligi tufayli «kognitiv», «motivatsion-qadriyatli» xususiyatlarga psixologik ta'sir etish zarurati asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida axborot kompetentligini rivojlanganligini baholash me'zonlari va ko'rsatkichlari aniqlashtirilib, amaliyotda qo'llanilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida axborot kompetentligini rivojlantirishga doir uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilib, amprobatsiya qilingan.

talabalar axborot kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan maxsus model va trening dasturi ishlab chiqilgan, amaliyotga tadbiiq etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilganligi, xalqaro miqyosda tan olingan metodik vositalar, ma'lumotlarning reprezentativligi, empirik

tadqiqotlar ilmiy-nazariy chuqur asoslab berilganligi; aniqlangan ko'rsatkichlarning ishonchli, ilmiy manbalarga asoslanganligi; psixometrik talablarga javob beradigan psixodiagnostik usullardan foydalanilganligi; empirik natijalarning maqsadga muvofiq tahlil qilinganligi, natijalar «Ms Excel», «SPSS 22.0» dasturlari vositasida qayta ishlanganligi; ilmiy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati olingan natijalarning aniqligi, shakllantirilgan xulosalarning puxtaligi va ilmiyligi, axborot kompetentlikni rivojlantirishning individual psixologik xususiyatlar, tafakkur va kognitiv uslubga bog'liqlik jihatlarini tizimli bayon qilinganligi, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining axborot kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik-psixologik vositalarni taklif etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati talabalar, ya'ni bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini shakllantirishda axborot kompetentligini rivojlanganligidan foydalanishning ustuvorligi va ularning individual-psixologik xususiyatlari tahlil qilib berilgan ma'lumotlar «Kasb psixologiyasi», «Ontogenez psixologiyasi», «Pedagogik psixologiya» fanlari bo'yicha o'quv dasturi, qo'llanmalar yaratishda, ma'ruza hamda amaliy mashg'ulotlar tayyorlash jarayonida qo'llash mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ijtimoiy axborot kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini tadqiq etish natijalari asosida:

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar axborot kompetentligining rivojlanishiga o'quv motivlarini ta'siri natijasida talabalarning diqqat fokusini ta'limiy ma'lumotlarga qaratishi, didaktik ma'lumotlar bilan ishlashdagi tasavvurlar olamini kengayishi kognitiv komponentning ta'sirida kuchliroq namoyon bo'lishi tufayli «professional» hamda «o'quv-kognitiv» motivlar ustuvor harakterga ega ekanligi dalillangan takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 21-avgustdagi PM-173-son buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2024-yil 26-avgustdagi PM-173 a-son ma'lumotnomasi). Natijada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar axborot kompetentligining rivojlanishiga o'quv motivlarini ta'sirini aniqlash imkoniyati yaratilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining axborot kompetentligini rivojlanishi maydondan mustaqil kognitiv uslub egalarida axborotlarni idrok qilish, qayta ishlashda kognitiv komponent pragmatik fikrlashni, maydonga tobe uslub egalarida esa axborotga motivatsion-qadriyatli munosabat idealistik tafakkurni kuchaytirganligiga asoslanib shaxs tafakkur va kognitiv uslubi bilan determinatsiyalashganligi isbotlangan takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 21-avgustdagi PM-173-son buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2024-yil 26-avgustdagi PM-173 a-son ma'lumotnomasi).

Natijada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining axborot kompetentligini rivojlanishiga tafakkur va kognitiv uslubining ta'siri ochib berilgan;

talabalarning axborot kompetentligi ma'lumotlar bazasi bilan ishlashdagi texnologik jihatlar o'zini nazorat qilish, ta'limiy axborotlarga motivatsion-qadriyatli munosabat ekstroversiya-introversiya, emotsional barqarorlik, ekspressiv-amaliy fazilatlar bilan uyg'un holda o'quv jarayonida namoyon bo'lganligi tufayli uning shaxs individual xususiyatlariga bog'liq rivojlanishi aniqlangan takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 21-avgustdagi PM-173-son buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2024-yil 26-avgustdagi PM-173-a-son ma'lumotnomasi). Natijada talabalarning axborot kompetentligini rivojlanishi shaxs individual xususiyatlariga bog'liqligini tadqiq qilish imkoniyati yaratilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida axborot kompetentlikni rivojlantirish uchun talabalarda turli axborot manbalarini topish, ularni aniqligi va dolzarbligini tekshira olish, ulardan didaktik maqsadda foydalanish, birlamchi axborotni ikkilamchi ma'lumotdan ajratib olish, internet-resurslardan foydali axborot topish ko'nikmasini shakllanishi muhimligi tufayli «kognitiv», «motivatsion-qadriyatli» xususiyatlarga psixologik ta'sir etish zarurati asoslangan takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 21-avgustdagi PM-173-son buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2024-yil 26-avgustdagi PM-173-a-son ma'lumotnomasi). Natijada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida axborot kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan dastur va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat bo'lib, ishning umumiy hajmi 144 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi va

e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Axborot kompetentligi muammosini tadqiq etishning ilmiy-nazariy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida shaxs axborot kompetentligini rivojlanishi masalasining pedagogik-psixologik manbalardagi talqini, kompetentlik va uning psixologik xususiyatlari, shaxsda uni namoyon bo'lishining o'ziga xos jihatlari hamda bo'lajak pedagoglarda axborot kompetentlikni rivojlanishining metodologik jihatlari tahlil qilingan.

Bo'lajak pedagoglarning salohiyati va individual imkoniyatlari uning kompetentligi hisoblanadi. Shu boisdan mazkur bobda kompetentlik, axborot kompetentlik muammosi bo'yicha xorij olimlari hamda mamlakatimiz psixologlarining mavzuga oid nazariy qarashlari umumlantirilgan, axborot kompetentlik tushunchasiga berilgan ta'riflari hamda talabalarni kasbiy rivojlanishning psixologik mexanizmlariga ilmiy izohlar berilgan.

Dissertatsiyaning «**Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini axborot kompetentligining psixologik xususiyatlari**» deb nomlangan ikkinchi bobida o'rganilayotgan muammoning empirik tahliliga bag'ishlangan bo'lib, ushbu bobda tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari, tadqiqotda qo'llanilgan metodlarning umumiy tavsifi, o'tkazish tartibi, olingan natijalarning tahliliga asoslangan korrelyatsion bog'lanishlar izohi o'z aksini topgan. Shuningdek, axborot kompetentlikning komponentlari va uning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlash maqsadida tadqiqot uchun valid test va so'rovnomalarda bo'yicha tadqiqot obyektidan olingan natijalar tahlili keltirilgan. Dastlab tadqiqot uchun tanlab olingan 374 nafar respondentlarda N.A.Stepanova, L.N.Sannikova, S.N.Yurevich, N.I.Levshinalarning «Ijtimoiy-axborot kompetentligini aniqlash» so'rovnomasini o'tkazib oldik. Natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Talabalarda axborot kompetentligining dinamik xususiyatlari namoyon bo'lishi (n=374)

Ko'rsatkichlar	1-kurs		2-kurs		3-kurs		4-kurs		H	p
	N	O'rtacha rang	N	O'rtacha rang	N	O'rtacha rang	N	O'rtacha rang		
Kognitiv	92	141,68	95	166,30	97	217,74	90	224,12	40,281**	0,000
Texnologik	92	192,52	95	162,02	97	201,15	90	194,56	7,568	0,056
Motivatsion-qadriyatli	92	206,40	95	173,55	97	188,53	90	181,79	5,163	0,160

Izoh: **p ≤ 0,01, *p ≤ 0,05

Dissertatsion tadqiqotdan olingan natijalar Kruskal-Uollis (H) mezonini bo'yicha tahlil qilindi. Natijalarga ko'ra, talabalarning ko'rsatkichlarida faqatgina kognitiv

($H=40,281$; $p \leq 0,01$) komponent bo'yicha ahamiyatli statistik farqlar aniqlangan. Talabalarning natijalarini tahlil qiladigan bo'lsak, axborot kompetentligining kognitiv komponenti 1-kursdan 4-kursga qarab o'zgarib borganligini kuzatishimiz mumkin. Mazkur holat boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarida axborot texnologiyalari, virtual olam, uning imkoniyatlari haqida bilimlarning ortishi, raqamlashtirilgan ma'lumotlar bilan ishlash ko'nikmasi shakllanishi ularning kognitiv jarayonlarini namoyon qilishini kuchayishiga olib kelgan. Ijtimoiy-axborot kompetentlikning kognitiv komponenti axborot, axborot obyekti bilan bog'liq bilimlarni mustaqil o'zlashtirishni o'zida mujassamlashtiradi. Talabalardagi kognitiv komponent darajasi fan sohasiga oid bilimlarni to'liqligi, chuqurligi, tizimlili bilan belgilanadi. Talabalarimizning natijalariga nazar tashlaydigan bo'lsak, fan asoslari qanchalik mukammal o'zlashtirilgani sari ularning kognitiv sohasini kengayishi bilan belgilanadi. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari mutaxassislik fanlarini o'zlashtirib borar ekan, uning axborot texnologiyalariga oid savodxonlik darajasi ortib boradi. Bu esa 1-kursga qabul qilingan talabaga qaraganda 4-kurs talabasida axborot kompetentligini ortib borishiga xizmat qilgan. Bundan tashqari, talabalardagi axborot kompetentligining kognitiv komponentini kurslar kesimida o'sib borishi axborotni qabul qilish, undan foydalanish va ularni boshqarish ko'nikmasini ortishi bilan ham bog'liqdir. Xususan, 1-kursdagi umumiy fanlar modulini o'qitilishi talabalarda axborotni qabul qilish, saralash, qayta ishlash ko'nikmasini shakllanishiga xizmat qilsa, 3-4-kurslarda mutaxassislik fanlarining ko'payishi axborot texnologiyalariga oid bilimlarni kasbiy faoliyatga sintezlash bilan bog'liq jarayonni kuchaytiradi. Natijada, boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari o'zlarining kasbiy bilimlarini amaliyotdagi uzviylik va uzluksizlik hisobiga raqamli texnologiyalar bilan bog'lashga urinadilar. Bu esa axborot texnologiyalariga oid bilimlarni mutaxassislik doirasida qo'llash imkonini yaratadi. Shu boisdan kurslar orasidagi natijalarda ahamiyatli farqlar kuzatilgan. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida axborot kompetentligini rivojlanganlik darajasida kognitiv komponentning ustuvorligi aniqlangan.

Tadqiqotda talabalarining axborot kompetentligini rivojlanishidagi dinamikani o'quv motivlariga bog'liqligini tadqiq etdik. Chunki, bizning taxminimizcha talabalarining axborot kompetentligi o'quv jarayoni hamda ta'lim motivlari bilan bog'liq holda rivojlanib boradi. Shu boisdan, N.A.Stepanova, L.N.Sannikova, S.N.Yurevich, N.I.Levshinalarning «Ijtimoiy-axborot kompetentligini aniqlash» so'rovnomasidan olingan natijalarni A.A.Rean, V.A.Yakunin, N.S.Badmayeva tomonidan modifikatsiya qilingan «Talabalarining o'quv motivatsiyasini diagnostika qilish» so'rovnomasi natijalari bilan bog'liqlik jihatlari o'rganib chiqildi. Natijalar 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadvalda keltirilgan natijalarga ko'ra, talabalarining axborot kompetentligining texnologik komponenti professional motivlar ($r=0,206$; $p \leq 0,01$), o'quv va kognitiv motivlar ($r=0,129$; $p \leq 0,05$) bilan ahamiyatli bog'lanishlarga ega ekanligi kuzatilgan. Qolgan mezonlar, ya'ni kognitiv, motivatsion-qadriyatlar omillarning o'quv motivlari bilan ahamiyatli bog'lanishlarga ega bo'lmaganligi aniqlangan. Mazkur korrelyatsion bog'lanishlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining axborot kommunikativ texnologiyalar bilan ishlashidagi ko'nikmalari professional jihatdan o'sishni

ko'rsatmoqda. Boshqacha aytganda, talabalar axborot kommunikativ texnologiyalardan kasbiy bilimlarni o'zlashtirish, o'z ustida ishlash, professional shakllanish vaqtida foydalanadilar.

2-jadval

Talabalarda axborot kompetentligini o'quv motivlari bilan bog'liqligi (n=374)

Ko'rsatkichlar	Kommunikativ motivlar	O'zini olib qochish motivi	Obro' motivlari	Professional motivlar	O'z imkoniyatlarini ijod sohasida ro'yobga chiqarish motivlari	O'quv va kognitiv motivlar	Ijtimoiy motivlar
Kognitiv	0,014	0,024	-0,008	0,085	0,000	0,075	0,075
Texnologik	0,019	0,057	-0,024	0,206**	0,074	0,129*	0,040
Motivatsion-qadriyatli	0,065	0,041	-0,082	-0,004	-0,064	-0,040	-0,070

Izoh: **p ≤ 0,01, *p ≤ 0,05

Axborot kommunikatsiyasi, raqamli texnologiyalar, audio-vizual o'yinlardan didaktik maqsadda foydalanishni o'rganish, ulardan kasbiy shakllanishdagi muhim element sifatida qo'llash ko'nikmasini namoyon qilishi muhim o'ringa ega. Xususan, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun didaktik maqsadda qo'llaniladigan 3D texnologiyalarini darsda qo'llash bilan bog'liq bilim, ko'nikmalarni shakllanishi aynan kursdan-kursga o'tish orqali takomillashib boradi. Shu boisdan, axborot kommunikatsiyaning texnologik komponenti professional motivlar bilan uyg'un namoyon bo'lmoqda. Bundan tashqari, texnologik komponent o'quv va kognitiv motivlar bilan ham uyg'un namoyon bo'lishi, talabalarda raqamli texnologiyalardan bilim olish, o'z o'quvlarini shakllantirish uchun foydalanishlarini anglatadi. Mazkur holat talabalar axborotlar oqimi kuchaygan davrda ma'lumotlarni saralash, ularni qayta ishlash, foydalanish ko'nikmasi muhim o'ringa egaligi anglatadi. Ta'limiy axborotlarni qayta ishlash orqali talabalar o'zlaridagi kognitiv jarayonlarini faollashtiradi, bilim darajasini ortishiga xizmat qiladi. Kursdan-kursga o'tgani sari talabalarda axborotlarni qabul qilish, qayta ishlash, uzatish ko'nikmalari shakllana boshlaydi va bu holatni axborot texnologiyalari bilan uyg'unlashtira oladilar. Qolaversa, obektiv hamda virtual olamdagi ma'lumotlarni subektiv aks ettirish avvalo talabalarda kognitiv jarayonlar faollashmog'i lozim. Bunda talabalarning kognitiv jarayonlaridan idrok, xotira, diqqat, tafakkurning jadal rivojlanishi kasbiy ma'lumotlar bilan bog'liq ma'lumotlarni qabul qilish, idrok qilish, tushunish, qayta ishlash hamda ifodalanishini anglatadi.

Tadqiqotda talabalarning axborot kompetentligiga ta'sir etuvchi pedagogik-psixologik xususiyatlarni aniqlashni maqsadga muvofiq deb bildik. Buning uchun N.A.Stepanova, L.N.Sannikova, S.N.Yurevich, N.I.Levshinalarning «Ijtimoiy-axborot kompetentligini aniqlash» so'rovnomasidan olingan natijalarni A.A.Alekseyeva va L.A.Gromovalarning «Tafakkur uslubini aniqlash» so'rovnomasidan olingan natijalar bilan bog'liqligini tahlil qildik. Natijalar quyidagi 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadvalda keltirilgan natijalarga ko'ra, axborot kompetentlikning kognitiv komponenti idealistik ($r=-0,166$; $p\leq 0,01$) bilan salbiy, pragmatik ($r=0,114$; $p\leq 0,05$) bilan ijobiy bog'lanishga ega ekanligi aniqlangan. Bizga ma'lumki, kognitiv komponent talabaning axborotlarni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyoji bilan bog'liq. Bunda talaba o'zining mutaxassisligi bo'yicha egallashi mumkin bo'lgan axborotlarni tahlil qilish, qayta ishlashda kognitiv jarayonlar muhim o'ringa ega. Natijalarimizning qiziq tomoni shundaki, kognitiv komponent idealistik tafakkur egalarida teskari bog'lanish bergan.

3-jadval

**Talabalarning axborot kompetentligini tafakkur uslubi bilan bog'liqligi
(n=374)**

Ko'rsatkichlar	Sintetik	Idealistik	Pragmatik	Analistik	Realistik
Kognitiv	0,101	-0,166**	0,114*	-0,099	-0,017
Texnologik	0,023	-0,007	-0,060	0,001	-0,096
Motivatsion-qadriyatli	-0,087	0,197**	-0,150**	0,090	0,035

Izoh: ** $p\leq 0,01$, * $p\leq 0,05$

Idealistik tafakkur egalari maqsadlarni aniq belgilaydi, har qanday holatda ehtimoliy natijalarni hisobga oladi. Idealistik fikrlovchilar mantiqiy masalalarni nazariy jihatdan hal qilishga urinadi. Natijalarning qizig'i shundaki, kognitiv jarayonlar idealistik tafakkur egalarida teskari natija bergan. Bu esa talabalarning ko'proq g'oyalar va nazariy tahlillarga asoslanib, real qarashlardan uzoqroqda ekanligini ko'rsatadi. Boshqacha aytganda g'oyalar, qarashlarni ideal tarzda shakllantirganlari bilan, axborotlarni qayta ishlashda ideal g'oyalarga asoslanganlari bilan ularni reallikka ko'chirib, amaliy ko'nikmalar bilan mustahkamlashda muammolarga duch kelishlarini anglatadi. Shu boisdan, ikki mezon orasida teskari bog'lanishlar kuzatilgan. Talabalarning natijalarida kognitiv komponent pragmatik tafakkur bilan ijobiy bog'lanishga ega bo'lgan. Odatda bunday fikrlash tipi insondan ravon tafakkurni, g'oyalarning rang-barangligini talab etadi. Chunki pragmatik tafakkur egalari bir variant samara bermasa, tezda ikkinchi variantlarni ham ko'rib chiqa oladilar. Bu holat esa ulardan fikrlashdagi kognitivlikni talab etadi. Talabalar axborotlar olamida kommunikativ texnologiyalarni qo'llayotganda bir necha variantlarni ko'rib chiqishi uchun albatta kognitiv analiz talab etiladi. Shu boisdan ham ikki mezon orasida ijobiy bog'lanishlar aniqlangan.

Talabalar axborot kompetentligining motivatsion-qadriyatli komponenti idealistik ($r=0,197$; $p\leq 0,01$) bilan ijobiy, pragmatik ($r=-0,150$; $p\leq 0,01$) bilan salbiy bog'lanishlarga ega ekanligi kuzatilgan. Mazkur holat talabalarning axborot kommunikativ texnologiyalarga qadriyatli munosabati bilan bog'liqdir. Xususan,

idealistik tafakkur egalari muammoni global tarzda intuitiv baholashni yuqoriligi bilan ajralib turadilar. Idealistlarda maqsad, ehtiyojlar, insoniy qadriyatlar, ahloqiy muammolarga qiziqish yuqori bo‘ladi. Ular o‘z qarorlarida sub‘ektiv va ijtimoiy omillarni hisobga oladilar, qarama-qarshiliklarni bartaraf etishga va turli pozitsiyalarda o‘xshashliklarni kuchaytirishga intiladilar, osongina, ichki qarshiliksiz, turli g‘oyalar va takliflarni idrok etadilar, his-tuyg‘ular, kechinmalar va boshqa sub‘ektiv jihatlar bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni muvaffaqiyatli hal qiladilar. Ijtimoiy-axborot kompetentligining muhim mezon bo‘lgan motivatsion-qadriyatli omil ham idealistik tipda fikrlovchilarda aynan ijtimoiy munosabatlardagi keyslarni hal qilishda vaziyatga nostandart yondashishlari va integrasiyalashishida ko‘rinadi. Shu boisdan, ikki mezon orasida ijobiy bog‘lanishlar aniqlangan. Natijalarimizdagi o‘ziga xos tomon motivatsion-qadriyatli komponentning pragmatik tip bilan teskari bog‘liqligidir. Bir tomondan olganda, talaba axborotga qadriyatli munosabatda bo‘lganda, ularni o‘zgartirishga moyil bo‘lmaydi. Ta‘limiy axborotlarga qadriyatli munosabatda bo‘ladigan talabalar ushbu ma‘lumotlar bilan bog‘liq qarashlarini o‘zgartirishi qiyindir. Pragmatiklar esa o‘z qarashlarini o‘zgartirishga moyillar. Pragmatiklar o‘z fikrlari va qarashlarini, ma‘lumotlarni qayta ishlashdagi moslashuvchanligi axborotga qadriyat sifatida qarovchilarda kuzatilmaydi. Shu boisdan, ikki mezon orasida salbiy bog‘lanishlar aniqlangan.

Talabalarning axborot kompetentligining texnologik komponenti tafakkur uslubining hech biri bilan bog‘lanishga ega bo‘lmagan. Mazkur holat talabalar har qanday holatda ham axborotlarga egalik qilishda, ularni amaliyotga tadbiiq etishda tafakkur teranligidan o‘z-o‘zidan foydalanishlari tabiiyligi bilan bog‘liqdir.

Talabalarning axborot kompetentligini namoyon bo‘lishida tafakkur uslubi muhim o‘ringa ega bo‘lib, ulardan idealistik va pragmatik uslubning ustuvorligi aniqlangan. Bundan tashqari, shaxsning tafakkur uslubi bilan bir qatorda kognitiv uslub ham talabalardagi axborot kompetentligi namoyon bo‘lishiga ta‘sir qiladi. Chunki, kognitiv uslublar individuallikning asosiy xususiyatlaridan biri bo‘lib, u ma‘lum ma‘noda yoshga, jinsga va psixofiziologik xususiyatlarga bog‘liqdir. Biz talabalarda axborotni qayta ishlash jarayonini boshqarishning psixik mexanizmlarini differensiyallashuvi ijtimoiy perseptiv jarayonlar orqali namoyon bo‘lishini aniqlash uchun N.A.Stepanova, L.N.Sannikova, S.N.Yurevich, N.I. Levshinalarning «Ijtimoiy-axborot kompetentligini aniqlash» so‘rovnomasidan olingan natijalarni K.Gottshald shakllari metodikasidan olingan natijalar bilan bog‘liqligini tahlil qildik. Natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan.

4-jadval

Talabalarning axborot kompetentligini kognitiv uslub bilan bog‘liqligi (n=374)

Ko‘rsatkichlar	Maydondan mustaqil	Maydonga tobe
Kognitiv	0,186**	-0,213**
Texnologik	-0,041	-0,019
Motivatsion-qadriyatli	-0,126*	0,148**

Izoh: **p ≤ 0,01, *p ≤ 0,05

Olingan natijalardan ko‘rinib turibdiki, axborot kompetentlikning kognitiv komponenti maydondan mustaqil ($r=0,186$; $p\leq 0,01$) kognitiv uslub bilan ijobiy, maydonga tobe ($r=-0,213$; $p\leq 0,01$) kognitiv uslub bilan teskari bog‘lanishga ega ekanligi kuzatilgan. Bizga ma‘lumki, maydondan mustaqil shaxslarga yuqori mustaqillik, «Men» obrazining barqarorligi, boshqalarga juda kam qiziqish, tanqidiylik, kompetentlik xosdir. Maydondan mustaqil individlar turli xil idrok illyuziyalariga kamroq beriladilar. Maydonga tobe shaxslar bilan taqqoslaganda, maydondan mustaqil sinaluvchilar aniq obyektни boshqalaridan ajratib, alohida idrok qiladilar. Bu esa talabalarning o‘z fikrlarini bayon qilishda, ma‘lumotlarni tahlil qilish, qayta ishlashda shaxsiy «men»ni dahlsizligi, o‘z fikrlari bayon qilishdagi rang-baranglik, ma‘lumotlarni o‘zlashtirishdagi moslashuvchanlikning yuqoriligi fikrlash doirasidagi mustaqillik bilan belgilanadi. Maydonga tobe talabalarda esa psixologik ta‘sir ko‘rsatuvchi vaziyatlarga nisbatan juda sezgirlik yuqori bo‘ladi, ular axborotlar bilan ishlashda aniq stereotipik qarashlar, «mumkin-mumkin emas» qabilidagi g‘oyalar bilan o‘ralashib qoladilar. Ular o‘zlarini qabul qilishga hamda xavotirlanish paydo qiladigan vaziyatlarni idrok qilmasdan blokirovka qilishga moyildirlar. Boshqacha aytganda, axborotlarni qayta ishlashda, axborot texnologiyalaridan foydalanishda aniq standartlarga bo‘ysunadilar. Shu boisdan, kognitiv jarayonlar faollashganda, ma‘lumotlarni tizimlashtirishdagi kognitsiyalar insonni maydonga tobe bo‘lib qolishdan qochishga olib keladi. Chunki, axborotlarni idrok qilish, xotirada olib qolish, diqqat fokusini axborot texnologiyalaridan olingan ma‘lumotlarga yo‘nalganligi maydonga tobe bo‘lishdan ko‘ra, mustaqil bo‘lishni talab etadi. Shu boisdan, ikki mezon orasida salbiy bog‘lanishlar aniqlangan.

Tadqiqotimizning navbatdagi mezoni motivatsion-qadriyatli komponent maydondan mustaqil ($r=-0,126$; $p\leq 0,05$) kognitiv uslub bilan teskari, maydonga tobe ($r=0,148$; $p\leq 0,01$) kognitiv uslub bilan ijobiy bog‘lanishga ega ekanligi aniqlangan. Virtual axborotlarga qadriyat sifatida qaraydigan talabalarda ma‘lumotlarga nisbatan senzitivlik yuqori bo‘ladi. Kognitiv uslubdagi maydondan mustaqillik axborotlarga qadriyatli yondashuv bilan teskari bog‘lanishga ega bo‘lgan. Buning asosiy sababi maydondan mustaqil talabalar detallarga, tafsilotlarga katta e‘tibor berishadi va ma‘lumotlarni idrok qilishda ba‘zi ichki (shaxsiy) omillarga tayaniladi. Ushbu bilish uslubiga ega bo‘lgan talabalar matnlar bilan osonlikcha ishlashadi, yozishda va yoki tahrir qilishda kamroq xatolarga yo‘l qo‘yadilar va materialni batafsil tahlil qilishga moyil bo‘ladilar. O‘qitishda ular uchun ko‘rinish muhim emas. Natijalarning qiziq tomoni ham shundan. Odatda ikki mezon orasida ijobiy bog‘lanish chiqsa tabiiy holat bo‘lar edi. Biroq, natijalarimizdagi o‘ziga mantiq talabalarda axborot kompetentligini yetarlicha shakllanmaganligi bilan bog‘liqdir. Talabadagi kompetentlikning yetarli emasligi, ularni axborotlarga qadriyat sifatida munosabat bildirgani bilan, ma‘lumotlarning asl mohiyatini chuqur tahlil qilmasdilar. O‘zlari ishongan va boshqalarni ishontirishni istagan axborotlarga nisbatan ularni tahlil qilmay, aniqligini tekshirmay turib qadriyatli munosabat qilishlarini anglatadi. Shu boisdan ham, ikki mezon orasida salbiy bog‘lanishlar aniqlangan. Maydonga tobelar esa ko‘proq borliqni, tevarak-atrofnı idrok qilishda nafaqat asosiy obyektga, balki fonga ham e‘tibor berishadi. Buni talabalarning kursdan-kursga o‘tishi bilan ulg‘ayganligi, ijtimoiy perseptiv jarayonlari ko‘lamining kengayishi, diqqatliroq bo‘lishlari bilan

tushuntirish mumkin. Maydonga tobe bo'lgan talabalar axborotni idrok etishga ko'proq fon (maydon)ga e'tibor berishadi va detallarga unchalik e'tibor bermaydilar. Bunday holda, shaxs yangi ma'lumotlarni qayta ishlashda tashqi omillarga tayanadi. Shuning uchun bunday talabalarga ta'lim jarayonida ko'proq ko'rgazmali materiallarni ko'rsatish zarur, katta hajmdagi matnlar ko'p sonli diagrammalar, jadvallar, ro'yxatlar va boshqalar bilan to'ldirilgan shaklda ko'rsatilishi kerak. Maydonga tobe kognitiv uslub egalarida aniq vizual axborotlarga qadriyatli munosabat kuchliroq namoyon bo'ladi. Shu boisdan, ikki mezon orasida ijobiy bog'lanishlar aniqlangan.

Dissertatsion tadqiqotimizning navbatdagi bosqichida shaxs xususiyatlarining axborot kompetentligini namoyon bo'lishiga ta'sirini aniqlashdan iborat. Talabalarning o'ziga xos individual psixologik xususiyatlari qaysidir holatda ularning kasbiy shakllanishiga sabab bo'ladi. Shu boisdan, talabalarning individual psixologik xususiyatlarini o'rganish orqali ularni kasbiy shakllanishini tashkil etish muhimdir. Shu maqsadda biz R.MakKraye va P.Kostning «Katta beshlik» so'rovnomasini qo'lladik. Mazkur so'rovnoma talabalarning ekstrovertsiya-introvertsiya, bog'liqlik – alohidalilik, o'zini nazorat qilish- impulsivlik, emosionallik-bosiqlik, ekspressivlik – amaliylik mezonlari bo'yicha individual psixologik xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi. Shu boisdan, mazkur metodikadan olingan natijalarni N.A.Stepanova, L.N.Sannikova, S.N.Yurevich, N.I.Levshinaning «Ijtimoiy-axborot kompetentligini aniqlash» so'rovnomasidan olingan natijalar bilan bog'liqlik jihatlariga oid natijalar 5-jadvalda aks ettirilgan.

5-jadval

Talabalarning axborot kompetentligini shaxs xususiyatlari bilan bog'liqligi (n=374)

Ko'rsatkichlar	Ekstrovertsiya-introvertsiya	Bog'liqlik – alohidalilik	O'zini nazorat qilish-impulsivlik	Emosional beqarorlik-emosional barqarorlik	Ekspressivlik – amaliylik
Kognitiv	0,024	-0,047	-0,003	-0,018	-0,131*
Texnologik	0,003	0,013	0,135**	-0,045	-0,023
Motivatsion-qadriyatli	0,142**	0,051	0,075	0,117*	0,143**

Izoh: **p ≤ 0,01, *p ≤ 0,05

Tadqiqot natijalariga ko'ra, talabalarning axborot kompetentligini kognitiv komponenti ekspressivlik-amaliylik ($r=-0,131$; $p \leq 0,05$) bilan teskari bog'lanishlarga ega ekanligi aniqlangan. Talabalarning shaxs individual xususiyatlaridan ekspressivlik-amaliylik qiziquvchanlik-konservatizm, xayolparastlik-realistlik, artistnamolik-artistnamo emaslik, senzitivlik-sezgir emaslik, moslashuvchanlik-rigidlikni o'zida mujassamlashtirgan. Umuman olganda, talabalarning tafakkuridagi moslashuvchanlik, vaziyatga bog'liqligi, holatni boshqarish, unga ta'sir etishdagi o'ziga xoslik bilan bog'liqligini ko'rishimiz mumkin. Talabalarning fikrlashida

vaziyatga moslashuvchanlik kuzatilgan bo'lsa ham ayrim holatlar borki fikrlar «rigidligi», qotib qolganligi bois, ular ijtimoiy masalalarni hal qilishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Shu jihatdan olganda fikrlar rigidligi ularning o'ziga nisbatan pessimistik munosabati, o'zi haqidagi «baribir uddalamayman» prizmasida idrok qilishga olib kelgan. Talabalarning rigid fikrlashi jamiyatda ularga nisbatan fikrlarning rang-barangligi bilan bog'liq. Shu boisdan, xayolparatlik-realistlikning darajasi ham talabaning kognitivlik darajasiga ta'sir etmay qolmaydi. Chunki, xayolparastlikning yuqori bo'lishi talabalarni realikdan uzoqlashishiga olib kelib, xayolot olamiga berilib ketadilar. Natijada tashqi olam bilan real munosabatlarda turli muammolar paydo bo'la boshlaydi. Bu esa shaxsni o'z real holatidagi bilimga intilishni passiv pozitsiyada namoyon bo'lishiga olib keladi. Bundan tashqari, kognitivlik ilmiylikni ta'lab etadi, senzitivlikning o'ta yuqorilab ketishi esa insonni bir oz ilmiylikdan chetlashishga olib kelishi mumkin. Bu ham o'z navbatida insonda kognitiv xususiyatlarni pasayishiga sabab bo'ladi. Shu boisdan, mezonlar orasida salbiy bog'lanishlar kuzatilgan.

Navbatdagi mezon ijtimoiy-psixologik kompetentlikning texnologiya komponenti bo'lib, u o'zini nazorat qilish-impulsivlik ($r=0,135$; $p\leq 0,01$) bilan ijobiy bog'lanishga ega bo'lgan. Bu yerda talabalarning axborotlar bilan ishlashida o'zini nazorat qilish darajasi muhimdir. Talabalarda axborot texnologiyalaridan foydalanish mahorati o'zini nazorat qilish xususiyatiga bog'liq. Aslida o'zini nazorat qilish-impulsivlik aniqlik-noaniqlik, tirishqoqlik-iroda sustligi, mas'uliyatlik-mas'uliyatsizlik, oldindan ko'ra bilish-loqaydlik sifatleri mujassamlashadi. Talabalarning ballar gradatsiyasiga ko'ra, axborot kompetentligining texnologik komponenti ko'proq faoliyatdagi aniqlikni, tirishqoqlikni, mas'uliyatlikni, prognostik tafakkurni shakllanganligi bilan mustahkamlangandir. Bu esa talabalarda axborot texnologiyalaridan didaktik maqsadda foydalanishda fikrlash teranligi bilan ajralib turishini ko'rsatadi. Shu boisdan, natijalar orasida musbat bog'lanishlar aniqlangan.

Dissertatsiyaning navbatdagi mezoni motivatsion-qadriyatli komponent bo'lib, u ekstrovesiya-introversiya ($r=0,142$; $p\leq 0,01$), emotsional beqarorlik – barqarorlik ($r=0,117$; $p\leq 0,05$), ekspressivlik-amaliylik ($r=0,143$; $p\leq 0,01$) bilan ijobiy bog'lanishlarga ega ekanligi aniqlangan. Aslida ekstrovesiya-introversiya xususiyati shaxsning muloqotdagi pozitsiyasi bilan belgilanadi. Agar talabalar mulqotda introver bo'lsalar ko'pincha ta'sirlarga beriluvchan, munosabatlarga tobe, o'z kechinmalarini oshkora aytishga botinmaydigan, ekstrovertlar esa aksincha munosabatlarda faol, o'z fikrlari va xissiyotlarini bemalol ifodalaydigan, suhbat jarayonini boshqaradigan bo'ladilar. Respondentlarning to'plagan ballarini alohida ko'rib chiqilganda, talabalarning aksariyatida ekstrovesiyaga moyillikning mavjudligi aniqlangan. Bu holat talabalarning bevosita tanlagan kasb yo'nalishi bilan bog'liqdir. Biz bilamizki, boshlang'ich sinf o'qituvchilari «inson-inson» munosabatlari tizimidagi kasb egalaridir. Bu esa ulardan muloqotdagi faollikni talab etadi. Bu esa talabalar har qanday ko'rinishdagi axborotlarga o'zgaruvchan vosita sifatida munosabatda bo'lishini anglatadi. Chunki, muloqotdagi faol insonlarda vaziyatga moslashish, har qanday axborotni qayta ishlashga, axborotli o'zgarishlarga moslashish kuchli bo'ladi. Shu boisdan, natijalar orasida musbat bog'lanishlar aniqlangan. Shaxsdagi axborot, IT ma'lumotlarga motivatsion-qadriyatli munosabatni namoyon bo'lishida emotsional

